

PREPARATINI QO‘LLASH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

TARKIBI VA CHIQARILISH SHAKLI

Tabiiy o‘simliklardan tarkib topgan, o‘ziga xos hidga ega tabletkalar – shakli dumaloq, ikki tomoni qabariq, och jigarrang tusda. 0,5 gr.dan 60 dona. Himoyalovchi plombali polietilen flakonda yoki blisterda kodoklangan. (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o‘ramlar, (2) – qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma.

Tarkibi: Botqoq toshyorari (S. Hirculus L.), Ro‘yan (Rubia Tinctorum L), Qirqbo‘g‘im (Equisetum arvense L.),

Buyrak choyi (Folium Orthosiphonis L.), Brusnika barglari (Folium Vitis idaea L.), Pol-pola (Aerva lanata), Qush tili (Polýgonum aviculáre L.), Oddiy zirk (Folium Berberidis L.).

PREPARATNING TA‘SIRI

Spazmolitik, yalliglanishga qarshi ta‘sir ko‘rsatadi. Siydik haydash xususiyatiga ega. Buyrak toshi kasalligida turli tabiatli toshlarning ko‘chishiga yordam beradi, tuz almashinuvini me‘yorlashtiradi.

QO‘LLANILISHI

Buyrak va siydik yo‘llarining surunkali shamollash kasalliklari (piyelonefrit, piyelit, sistit, uretrit, prostatit). Siydik – tosh kasalligi. Safro – tosh kasalligi, xoletsistitlar, xolangitlar. Nordon siydik diatezi. Osteoxondroz, podagra.

Preperatni buyrak toshini olib tashlash bo‘yicha jarrohlik amaliyotidan yoki ularning mustaqil ko‘chishidan keyingi davrlarda ham tavsiya etiladi.

QO‘LLASH MUMKIN BO‘LMAGAN HOLATLAR

Preparat bir yoki bir nechta tarkibiy qismlariga yuqori sezuvchanlik.

QO‘LLASH USULI VA DOZALARI

Davolanish muddati va preparat miqdori, davolovchi shifokor tomonidan har bir bemorga yakka tartibda belgilanadi.

3 yoshdan kata bolalarga	Kattalarga
1 ta tabletkadan kuniga 2 mahal, taom iste‘mol qilishdan 5-10 daqiqa avval.	2 ta tabletkadan kuniga 3 mahal, taom iste‘mol qilishdan 5-10 daqiqa avval.

Surunkali kasalliklarda davolanish kursi odatda 20–30 kunni tashkil etadi. Zarurat tug‘ilganda qayta davolash kursi belgilanadi

NOJO‘YA TA‘SIRI

Odatda nojo‘ya ta‘siri yuzaga kelmaydi, ko‘pgina holatlarda preparatning yaxshi ta‘siri kuzatilgan.

Preparatning ba‘zi tarkibiy ingrediylariga organizm sezuvchanlikligi yuqori bo‘lgan holatlarda, allergik reaksiyalar va oshqozon-ichak traktidagi dispepsik buzilishlar kuzatilishi mumkin.

Preparatga yuqori sezuvchanlik holati kuzatilsa, preparatni qo‘llashdan to‘xtash kerak.

PREPARATNING ME'YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI

Soltosten preparatining me'yordan ortiq qabul qilinishi oqibatida paydo bo'ladigan noxush holatlar aniqlanmagan.

BOSHQA PREPARATLAR BILAN O'ZARO TA'SIRI

Boshqa dori vositalari bilan qo'llanilganda nojo'ya ta'siri aniqlanmagan.

SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATLARI

Preparat bolalar qo'li yetmaydigan, yorug'likdan himoyalangan joyda +2°S dan +25°S gacha haroratda saqlanishi lozim.

Saqlanish muddati – 2 yil.

Manzil: 1000011, Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Tel.: +998 (95) 195-59-00

E-mail: info@anfa.uz, www.anfa.uz